



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY
TAJRIBALARI**

**ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ЭКОНОМИКИ**

**FOREIGN EXPERIENCES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL
ECONOMY**

Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich

PhD, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
“Makroiqtisodiyot” kafedrası dotsenti v.b.

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xalqaro miqyosda shakllangan asosiy modellari – Yevroatlantika, Sharqiy Osiyo, alternativ va "uch tomonlama spiral" modellarining o‘ziga xos xususiyatlari, ustuvor yo‘nalishlari va amal qilish mexanizmlari qiyosiy tahlil qilingan. O‘zbekiston iqtisodiyotining texnologik ehtiyojlari va institutsional infratuzilmasidan kelib chiqqan holda, mamlakatda yuqoridagi modellarining ijobiy jihatlarini o‘zida mujassam etgan aralash milliy innovatsiya tizimini shakllantirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy innovatsiya tizimi, Yevroatlantika modeli, Sharqiy Osiyo modeli, alternativ model, uch tomonlama spiral, innovatsion infratuzilma, texnologiyalar transferi, ITTKI, aralash model.

В данной статье представлен сравнительный анализ основных международно признанных моделей инновационного развития национальной экономики – евроатлантической, восточноазиатской, альтернативной и «тройной спирали», их специфики, приоритетных направлений и механизмов реализации. На основе технологических потребностей и институциональной инфраструктуры экономики Узбекистана предложены научные предложения и практические рекомендации по формированию в стране смешанной национальной инновационной системы, сочетающей в себе положительные аспекты вышеуказанных моделей.

Ключевые слова: национальная инновационная система, евроатлантическая модель, восточноазиатская модель, альтернативная модель, тройная спираль, инновационная инфраструктура, трансфер технологий, НИОКР, смешанная модель.

This article provides a comparative analysis of the main internationally established models of innovative development of the national economy — the Euro-Atlantic, East Asian, alternative and "triple spiral" models, their specific features, priority areas and mechanisms of implementation. Based on the technological needs and institutional infrastructure of the Uzbek economy, scientific proposals and practical recommendations are given on the formation of a mixed national innovation system in the country, which combines the positive aspects of the above models.

Keywords: national innovation system, Euro-Atlantic model, East Asian model, alternative model, triple helix, innovative infrastructure, technology transfer, R&D, mixed model.

Ilmiy adabiyotda milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning milliy innovatsiya tizimlarini shakllantirishga asoslangan Yevroatlantika, Sharqiy Osiyo, alternativ va uch tomonlama spiral modellari ajratib ko‘rsatiladi.

Yevroatlantika modeli G‘arbiy Yevropa mamlakatlari uchun xos bo‘lib, innovatsiyalarning paydo bo‘lishidan tortib innovatsion mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarishgacha bo‘lgan

to‘liq innovatsion siklni nazarda tutuvchi klassik model hisoblanadi. “Ushbu modelda mamlakat innovatsion tizimining tarkibiy tuzilishi fundamental va amaliy fan, tadqiqot va ishlanmalar, tajriba namunalarini ishlab chiqish va ularni keng ko‘lamda ishlab chiqarishga joriy qilish, innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish mexanizmlari, kadrlarni tayyorlash va ilmiy tekshirish institutlari tarmog‘i kabi elementlarni to‘liq qamrab oladi” [10].

Yevroatlantika modeli amal qiluvchi mamlakatlar, jumladan, Shveysariya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Finlyandiya, Daniya, Germaniya va Fransiya jahonda yuqori innovatsion salohiyatga ega mamlakatlar hisoblanadi. Innovatsion tizimlarni shakllantirish, boshqarish va rivojlantirish borasida to‘rtinchi sanoat inqilobi davridagi innovatsion rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha yetakchi universitetlar va ilmiy tadqiqot institutlarining fundamental fan tadqiqotlarini davlat tomonidan faol moliyalashtirish, amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarni korxonalar va boshqa biznes subyektlari tomonidan keng qo‘llab quvvatlash, fan va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni mintaqalar darajasida markazlashtirish tamoyillarga asoslaniladi [6].

Innovatsion rivojlanishning Sharqiy Osiyo modeli o‘z tarkibiy elementlari bo‘yicha boshqa modellardan ajralib turadi. Jumladan, innovatsion sikl tarkibida fundamental g‘oyalarni shakllantirish bosqichi, innovatsion tizim tarkibida esa fundamental tadqiqotlar elementi mavjud bo‘lmaydi. Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy milliy innovatsiya tizimlari uchun xos bo‘lgan ushbu modelda korporatsiyalar huzurida tashkil etilgan tadqiqot laboratoriyalari salmoqli o‘rin tutadi. Fundamental-amaliy ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlarning ushbu modeldagi o‘rni ahamiyatsiz darajada bo‘ladi. “Ushbu modelda milliy innovatsiya tizimi salohiyatini oshirish uchun texnik innovatsiyalar va yangi texnologiyalarga asosiy e‘tibor qaratiladi. Klassik innovatsion model amal qiladigan mamlakatlar texnologiyalari va nou-haularini import qilib, eksportga yo‘naltirilgan yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsad qilinadi” [5].

Yaponiya xususiy korxonalarining ilmiy-texnik amaliy ishlanmalari tizimi g‘oyani ishlab chiqishdan seriyali mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan innovatsion bosqichlarning samarali o‘zaro aloqadorligi, innovatsion g‘oyalarni to‘g‘ri tanlab olish va jadal tarqatish hamda bozorga muvaffaqiyatli joriy etish kabi xususiyatlarga ega [1].

Koreya milliy innovatsiya tizimida davlat ITTKIning amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajaradi hamda ushbu jarayonlarda ishtirok etadi. Mamlakatda ITTKIning va yangi texnologiyalarni moliyalashtirishda yirik moliya-sanoat guruhlariga katta ulushga ega. Xalqaro ilmiy-texnologik hamkorlik orqali yangi bilimlar va texnologiyalar o‘zlashtiriladi. “Koreya iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishida yangi texnologiyalarni moliyalashtirish orqali Chebollarining muhim o‘rin tutgan” [8].

Xitoyda institutsional infratuzilmani shakllantirish va innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish davlatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Davlat strategik vazifalarni bajarishda muhim o‘rin tutuvchi makroiqtisodiy dastaklarni o‘z qo‘lida saqlab qolgan holda mikro darajada bozor mexanizmlarini takomillashtirish va innovatsion faollikni rag‘batlantirish (keng ko‘lamli soliq imtiyozlari orqali) siyosatini olib boradi. Shu bilan birgalikda davlat-xususiy sektor sherikligi mexanizmidan ham samarali foydalaniladi. Fundamental tadqiqotlar deyarli to‘liq davlat tomonidan moliyalashtiriladi [7]. Xitoy innovatsiya tizimini rivojlantirishda ilg‘or innovatsion boshqaruv usullarini o‘rganish va ulardan foydalanishga katta e‘tibor qaratilgan [3].

Innovatsion rivojlanishning alternativ modeliga “boy xom-ashyo zaxiralariga va ularni qayta ishlash texnologiyalariga ega bo‘lmagan, fundamental va amaliy fanlar bo‘yicha salohiyati mavjud bo‘lmagan Tailand, Chili va Turkiya kabi mamlakatlar milliy innovatsiya tizimlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin” [9]. Alternativ modelda iqtisod, moliya, menejment, mehnat sotsiologiyasi va psixologiyasi kabi sohalarida kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratiladi, yuqori texnologiyalar kamdan-kam uchraydi yoki umuman mavjud bo‘lmaydi.

Asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlar bo‘lgan Tailand va Chili milliy innovatsiya tizimlari innovatsion menejment va yangi texnologiyalarni import qilishga asoslanadi. “Tailandda universitetlarni, xorijiy olimlarni jalb qiluvchi davlat va xususiy ilmiy-

tadqiqot institutlarini o‘z tarkibiga olgan yuqori texnologiyalar parklari tizimlari samarali amal qiladi” [12]. Childa fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish asosan oliy o‘quv yurtlarida tashkil etilgan ilmiy tadqiqot markazlarida amalga oshiriladi. Qishloq xo‘jaligi, turizm, innovatsion menejment, telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari tarmoqlari iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi [2]. Turkiyada milliy innovatsiya tizimini rivojlantirishda innovatsion infratuzilmani takomillashtirishga katta e‘tibor qaratiladi [11].

“Uch tomonlama spiral modeli iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning XXI asrda shakllangan yangi modeli hisoblanadi. Ushbu model Yevroatlantika modelining rivojlanishi hisobiga shakllangan bo‘lib, fanning biznes bilan uyg‘unlashuviga asoslanadi. Ushbu modelga AQSh milliy innovatsiya tizimi to‘la mos keladi. Ushbu modelning uch tomonlama spiral deb nomlanishiga sabab model universitetlar, davlat va biznes subyektlarining o‘zaro uzviy aloqadorlikdagi faoliyatlariga asoslanadi” [4]. Universitetlar huzurida texnologiyalar transfertlari markazlari va biznes-inkubatorlari tashkil etiladi. Davlat venchur investor funksiyalarini bajaradi, biznes subyektlari oliy ta‘lim tizimida faol ishtirok etadi.


Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning ushbu ko‘rib chiqilgan modellarini bir qator mezonlar bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlari asosida quyidagi 1-rasm shaklida qiyosiy taqqoslash mumkin.

Model nomi (mamlakat)	Model asosi	Ustuvor yo‘nalishlar	Mexanizm
Yevroatlantika modeli (G‘arbiy Yevropa mamlakatlari)	Universitetlardagi tadqiqotlar natijasida olinadigan bilimlar to‘plami	To‘liq innovatsion siklni qamrab olgan innovatsiya tizimini joriy etish, o‘z yangi ishlanmalarini tijoratlashtirish, texnologiyalarni va yuqori texnologiyali mahsulotlarni eksport qilish	Davlat-xususiy sektor sherikligi
Sharqiy Osiyo modeli (Yaponiya, Xitoy, Koreya Respublikasi)	Korporatsiyalarning amaliy tadqiqotlari natijasida olinadigan va import qilinadigan innovatsiyalar	Jahonga integratsiyalashgan innovatsion tizimni tashkil etish, yangi ishlanmalarni import qilish, texnologiyalarni va yuqori texnologiyali mahsulotlarni eksport qilish	Davlat-xususiy sektor sherikligi
Alternativ model (Tailand, Chili, Turkiya, Portugaliya)	Universitet va texnoparklar innovatsion infratuzilmasi	Boshqa mamlakatlar innovatsion tizimiga integratsiyalashish, texnologiyalar va yuqori texnologiyali mahsulotlarni import qilish	Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va shu sohada kadrlar tayyorlash
Uch tomonlama spiral (AQSh, qisman Yaponiya)	Fan, biznes va davlat institutlarining integratsiyalashgan munosabatlari majmuasi	Moliyaviy resurslar to‘plash, o‘zining yangi ishlanmalarini tijoratlashtirish, texnologiyalarni va yuqori texnologiyali mahsulotlarni eksport qilish	Institutlararo munosabatlar integratsiyalashuvini ta‘minlash uchun sharoitlar yaratish

1-rasm. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish modellarining qiyosiy tahlili [1]

O‘zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotning innovatsion mexanizmini shakllantirish, faol joriy etish va kengaytirishda “uch tomonlama spiral”, “Yevroatlantika” va “Sharqiy Osiyo” modellarining ijobiy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi milliy innovatsiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish maqsadga muvofiq. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun mos keladigan bunday innovatsiya tizimining aralash modelining shakli, amalga oshirish mexanizmi, xususiyatlarini quyidagi 2-rasmda ko‘rish mumkin. Ushbu aralash model “uch tomonlama spiral” modeli kabi innovatsion jarayonlarning barcha bosqichlarida davlat, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va korxonalar faoliyatlarining integratsiyalashuvini nazarda tutadi. Innovatsiyalar bu boradagi manfaatdor guruhlarining o‘zaro integratsiyalashgan munosabatlaridan kelib chiquvchi bozor talabi asosida shakllanadi. “Uch

tomonlama spiral” va “Yevroatlantika” modellari xususiyatlariga to‘lalgicha ega bo‘lgan innovatsiya tizimini shakllantirish qisqa muddatda erishiladigan jarayon emas. Ushbu natijaga qanchalik tez erishilsa, an’anaviy iqtisodiy tizimdan bilimlar va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy o‘shish modeliga qisqaroq fursatlarda o‘tish mumkin.



2-rasm. Milliy innovatsiya tizimini shakllantirishning aralash modeli [2]

O‘zbekistonda shakllantirish tavsiya etilayotgan aralash modeldagi milliy innovatsiya tizimining muhim xususiyati – bu milliy innovatsiya tizimi subyektlarining jahon innovatsiya tizimlariga integratsiyalashuvi, xorijiy ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy mashina va asbob-uskunalar, nou-haularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya shaklida jalb qilish yoki import qilish orqali yangi texnologik yutuqlarni o‘zlashtirish va ularni iqtisodiyotga joriy etish hisoblanadi. Ushbu xususiyat Sharqiy Osiyo mamlakatlari modeliga ko‘proq mos keladi va jahondagi so‘ngi fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda ichki iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymatli, eksportbop va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga nisbatan qisqa muddatlarda erishish imkonini beradi. Ushbu mexanizm mamlakatimizda ITTKI va texnologik innovatsiyalar hajmi yetarli darajada bo‘lmagan bugungi sharoitda milliy iqtisodiyotdagi texnologik bo‘shliqni to‘ldirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan, yuqori darajadagi innovatsion salohiyatga ega va samarali milliy innovatsion tizimni shakllantira olgan mamlakatlar va bunday natijalarga erishish sari samarali innovatsion siyosat olib borayotgan mamlakatlarning O‘zbekiston uchun xos bo‘lgan tajribalarini o‘zlashtirish zarur. Bunday mamlakatlar qatoridan Koreya Respublikasi va Xitoy kabi mamlakatlarning boy tajribasini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ushbu mamlakatlar tajribalaridan mamlakatimiz iqtisodiyotining mavjud rivojlanish darajasi, institutsional tuzilmalar holati, innovatsion salohiyati va qator iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlardan kelib chiqib O‘zbekiston iqtisodiyotini qisqa va uzoq muddatlarda innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazishda ijodiy foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) Авдокушин Е.Ф. Национальная инновационная система Японии. // Вопросы новой экономики, №4 (16) 2010. – С. 39–53.
- 2) Андрюшкевич О. Модели формирования национальных инновационных систем. // Федеральное интернет-издание «Капитал Страны». 13 Сентября 2013. URL: <http://kapitalrus.ru/articles/article/236495/>
- 3) Васильева Н.Ф., Кавура В.Л. Модели инновационного развития экономики: зарубежный опыт реализации. // Вестник института экономических исследований 2016, № 3. С. 74-82.
- 4) Ицковиц Г. Модель тройной спирали // Инновации. 2011. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/model-troynoy-spirali>.

- 5) Катуков Д.Д., Малыгин В.Е., Смородинская Н.В. Институциональная среда глобализированной экономики: развитие сетевых взаимодействий. / Научный доклад под ред. Н.В. Смородинской. М., Институт экономики РАН, 2012. - 45 с.
- 6) Клавдиенко В.П. Инновационная система Швейцарии: факторы успеха // Инновации 2018. №4 (234). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnaya-sistema-shveytsarii-factory-uspeha>.
- 7) Клавдиенко В.П. Национальная инновационная система Китая: становление и развитие // Инновации. 2016. №4 (210). С. 97-103.
- 8) Колотырина Е.А. Особенности становления инновационной системы Республики Корея // Вестник РУДН. Серия: Экономика. 2015. №2. ст. 96-105.
- 9) Коюда А.П. Типология моделей инновационного развития экономики // БИЗНЕСИНФОРМ № 4 '2011. С. 23-26.
- 10) Назарова С.В. Особенности Евроатлантической модели национальной инновационной системы // Экономика и бизнес: теория и практика. 2023. №3-1 (97). С. 101-105.
- 11) Перчинская Н. Инновационные модели развитых и развивающихся стран и возможность их адаптации к условиям Республики Молдова. INCE. 2018. — URL: https://ince.md/uploads/files/1524725892_modelle-inovationale.pdf.
- 12) Сергеев В.М., Алексеенкова Е.С., Нечаев В.Д. Типология моделей инновационного развития // Полития. 2008. No. 4. С.6-22.

UDK: 330.59

**XAYOT SUG‘URTASINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING AHOLI MOLIVAVIY
XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI ROLI**

**ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ И ЕГО РОЛ В
ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ**

**THE ECONOMIC ESSENCE OF LIFE INSURANCE AND ITS ROLE IN ENSURING THE
FINANCIAL SECURITY OF THE POPULATION**

Tursunova Nafisa Xalil qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti

“Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish” kafedrası o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0000-1375-5574

Annotatsiya

Ushbu maqolada hayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati hamda uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Hayot sug‘urtasi aholi daromadlarini kutilmagan moliyaviy risklardan himoya qilish, uzoq muddatli jamg‘armalarni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim moliyaviy instrumenti sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida hayot sug‘urtasining moliyaviy xavfsizlik tizimidagi o‘rni, uning ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda iqtisodiy barqarorlikka ta’siri yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida hayot sug‘urtasi bozorini rivojlantirishning dolzarb masalalari va istiqbollari yuzasidan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: hayot sug‘urtasi, moliyaviy xavfsizlik, sug‘urta riski, ijtimoiy himoya, sug‘urta fondi, daromadlarni himoyalash.

В статье рассматривается экономическая сущность страхования жизни и его рол в обеспечении финансовой безопасности населения. Страхование жизни анализируется как важный финансовый инструмент защиты доходов населения от непредвиденных рисков,